



Arabic Medicine: The Role of Ibn Sina's Works in Medical Terminology

Odina NOSIROVA¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2025

Received in revised form 5
September 2025

Accepted 10 October 2025

Available online 25 October
2025

Keywords:

medical terminology,
Arabic,
Latin,
Greek,
origin of the term,
medical translators.

ABSTRACT

This article analyzes the contribution of the great Eastern physician Ibn Sina to medical terminology through his influence on the dissemination of medical knowledge, the formation of medical practices, and the development of scientific and cultural exchange. It provides detailed information about the contributions of Ibn Sina's works to science and their pivotal role in the development of medical terminology history. The study examines the translation process of Ibn Sina's works and their role in standardizing medical terminology, as well as in spreading medical knowledge across various regions and cultures. The article also highlights the processes that facilitated the formation of a unified medical lexicon and promoted consistency in scientific communication through these translations. The conclusion emphasizes the long-term impact of these translations on the development of world medical science. Additionally, the article presents promising research directions for studying the history of medical translation, as well as suggestions on the role of modern technologies in analyzing and interpreting historical medical texts.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss9/S-pp216-221>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Arab tabobati: Ibn Sino asarlarining tibbiy terminologiyada tutgan o'рни

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tibbiy terminologiya,
arab tili,
lotin tili,
yunon,

Ushbu maqolada sharqning buyuk tabibi Ibn Sinoning tibbiy bilimlarni yoyish, tibbiy amaliyotlarning shakllanishi hamda ilmiy-madaniy almashinuvini rivojlantirishdagi ta'siri orqali tibbiyot terminologiyasiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Unda

¹ Doctoral student, Namangan State University. E-mail: nosirova.oydin1408@gmail.com

termin kelib chiqishi,
tibbiy tarjimonlar.

ushbu olimlar yozgan asarlarning ilm-fanga qo'shgan hissalari hamda tibbiy atamalar tarixi rivojida asosiy o'rni haqida batafsil ma'lumot beriladi. Tadqiqotda Ibn Sino asrlarining tarjima jarayoni va ular orqali tibbiy terminologiyani standartlashuvi hamda tibbiy bilimlarning turli hudud va madaniyatlarga tarqalishidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada ushbu tarjimalar yordamida yagona tibbiy leksikonning shakllanishi va ilmiy muloqotning izchil bo'lishiga ko'maklashgan jarayonlar ham ko'rsatib o'tiladi. Xulosa qismida mazkur tarjimalarning jahon tibbiyot fanining rivojiga ko'rsatgan uzoq muddatli ta'siri ta'kidlanadi. Shuningdek, tibbiy tarjima tarixini o'rganish uchun istiqbolli ilmiy yo'nalishlar hamda tarixiy tibbiy matnlarni tahlil qilish va sharhlashda zamonaviy texnologiyalarning roli bo'yicha takliflar beriladi.

Арабская медицина: место трудов Ибн Сины в медицинской терминологии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

медицинская терминология, арабский, латинский, греческий, происхождение термина, медицинские переводчики.

В данной статье анализируется вклад великого врача Востока Ибн Сины в медицинскую терминологию через его влияние на распространение медицинских знаний, формирование медицинской практики и развитие научно-культурного обмена. В ней подробно рассматривается вклад трудов этого ученого в науку и их ключевая роль в развитии истории медицинской терминологии. В исследовании анализируется процесс перевода трудов Ибн Сины и их роль в стандартизации медицинской терминологии, а также в распространении медицинских знаний в различных регионах и культурах. В статье также освещаются процессы, которые способствовали формированию единого медицинского лексикона и последовательному научному общению благодаря этим переводам. В заключении подчеркивается долгосрочное влияние этих переводов на развитие мировой медицинской науки. Кроме того, предлагаются перспективные научные направления для изучения истории медицинского перевода и роли современных технологий в анализе и интерпретации исторических медицинских текстов.

KIRISH

Milodiy 7-asrda Islom dini kelishi bilan Arab dunyosida barcha sohalarda katta o'zgarish bo'lganligi ma'lum. Ushbu davrda yangi Islom sivilizatsiyasi rivojlandi va dunyoning to'rt tomoniga tarqaldi. Ta'kidlash joizki, ushbu o'zgarishlar inson hayotining ko'p jabhalarida o'z aksini topdi. Shu nuqtayi nazardan, yangi Islomiy Arab tilining tez tarqalishi natijasida, Islom madaniyatida malakali tibbiyot xodimlarini o'qitish uchun ehtiyoj tibbiyot fanini birgalikda takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi [1]. Taniqli Arab rahbarlari, ayniqsa Abbosiylar sulolasidan taklif qilingan olimlar dunyoning barcha

tomonlari yangi tashkil etilgan poytaxtga, Bag'dodga ta'lim olgani yuborganlar. Ma'lumki, Bog'dod o'z davrining barcha fanlar uchun ilm o'chog'i va yangi madaniyat markazi edi. U yerda tashkil qilingan Bog'dod kutubxonasida eng mashhur Yunon, Rim va Hindiston tabiblarining asarlari xususan, Gippokrat Galenning tibbiyotga oid manbalari to'g'ridan-to'g'ri yunon tilidan Hind, Suriya, Fors va Arab tillariga tarjima qilinar edi [2]. 7-asrning oxiriga kelib ilmiy Fanlar akademiyasiga aylangan Bag'dodning tarjimon maktabi o'rta asrlar Arab (Islom) tibbiyoti uchun poydevor vazifasini o'tagan deyish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarixdan ma'lumki, o'rta asrlar arab hukmronligi vaqtida tibbiyot bo'yicha musulmon, yahudiy va nasroniy mutaxassislari, filologiya, va boshqa ilmiy sohalarda o'zaro hamkorlikda ish olib borganlar [3]. Biroq, ular tibbiy tarjima qilish bilan bir qatorda, arab tilida tibbiy asarlari ham yozishganini topishimiz mumkin. Islomning klassik davridagi tibbiyot mualliflarining tibbiy asarlari birmuncha katta edi [4]. Tibbiyot sohasiga oid eng muhimlar asarlarning mualliflari Abu Bakr Muhammad ibn Zakariya al-Roziy (G'arb dunyosida Razes nomi bilan tanilgan) (854–925), Ali ibn Abbos Al-majusiy (930–994) va Abu Ali Ibn Sino (980–1037) bo'lgan [5].

Ibn Sino ko'p asrlar davomida tibbiyotni o'rganish uchun asos bo'lgan "Tib qonunlari" asarini yozgan. Ushbu asar uning butun hayoti davomida yozilgan bo'lib, kasalliklar nomlari, tibbiy jihozlar atamallari, kasallik belgilari va davolash usullari, inson anatomiyasiga, diagnostikasi va terapiyaga oid terminlarni tasvirlangan [6].

G'arbda Avitsenna nomi bilan ham tanilgan shifokorlar ustози Ibn Sino Buxoro shahri yaqinida 980-yilda tug'ilgan [7]. Hatto erta bolalik davrida u ilm-fanga mehr qo'ygan. U 10 yoshida u Qur'on va grammatikani o'rganishni tugatgan [8]. Ibn Sinoning hayoti ko'plab yutuqlar bilan boy bo'lgan. Shifokor sifatida u ko'p vaqtini hukmdorlar va davlat ishlariga xizmat qilish bilan o'tkazgan, turli siyosiy masalalarda ishtirok etgan va bir muddat oliy davlat lavozimlarini bajarishga ham jalb qilingan [9]. Shu bilan birga, u o'zining ilmiy faoliyati va talabalarga dars berish orqali tibbiyot terminologiyasi sohasi uchun katta ilmiy meros qoldirgan. Uning yozgan tibbiyot yo'nalishidagi asarlari, foydalanilgan tibbiy so'zlarning mazmuni va tarjimalari uning ilmiy faoliyati va terminologiyaga qo'shgan hissasini yaqqol ko'rsatadi [10].

Ijtimoiy va siyosiy hayotdagi faol ishtirokiga qaramay, Gipokrat va Galenning tibbiy an'analari tahlil qilib, Islom ilm-fani va tabobatiga chuqur ta'sir ko'rsatgan [11]. Tadqiqotchilar Nasr va Rahmanning ilmiy izlanishida Ibn Sinoning o'rta asr faylasuflari va tabiblari orasida noyob ustunlikka ega ekanini ta'kidlaydilar [13]. U nafaqat o'z davrining buyuk faylasufi, balki eng nufuzli shifokorlaridan biri sifatida ham e'tirof etilgan [14].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va lingvistik tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqotning maqsadi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan tibbiy terminlar tarjima jarayoni va ular orqali tibbiy terminologiyaning nominatsiyasini aniqlash, asardagi tibbiy terminlar ildizlarni aniqlash, o'zbek tibbiy terminologiyasi tarkibida qanday shaklda saqlanib qolganini tahlil qilishdir.

Manbalar sifatida Ibn Sinoning tibbiyotga oid muhim asarlaridagi bir necha tibbiyotga oid terminlar tahlil qilindi hamda zamonaviy tibbiy lug'atlar, inglizcha-lotincha tibbiy glossariylar ham solishtirma manba sifatida foydalanildi hamda tibbiy atamalarning tarixiy kelib chiqishi ingliz tilidagi eng mashhur etimologik lug'atlardan biri – Online Etymology Dictionary yordamida tahlil qilingan.

ASOSIY QISM

Ibn Sino tibbiy terminologiyaning asosi sifatida qirqdan ortiq sohaga oid asarlar yaratgan [15]. Ularning eng mashhur asarlaridan biri – *Kitob ash-Shifo* bo'lib, bu kitob bir kishi tomonidan tuzilgan eng yirik bilim ensiklopediyasi hisoblanadi va turli ilmiy sohalarni qamrab oladi. Ushbu asarda deyarli barcha fanlar, jumladan metafizika, tabiiy fanlar, mantiq va matematikadan tortib, ilmning boshqa tarmoqlari ham tizimli tarzda yoritilgan.

Bundan tashqari, uning hanuzgacha dunyo tibbiyoti uchun eng muhim ilmiy ishlardan biri bo'lgan *Al-Qonun fi't-Tibb* (Tib qonunlari) asarlari, uning eng mashhur va ta'sirli ishlari hisoblanadi. Ushbu asarlar Sharq va qadimgi dunyo tibbiyoti tarixida hamda G'arb tibbiyot ilmidagi muhim o'rin egallaydi. Ushbu asar o'sha davrning to'liq tibbiyot fanini o'z ichiga olgan va tizimli shaklda taqdim etilgan. Mazkur tibbiy ensiklopedik asar beshta kitobdan iborat bo'lib, har bir qismi o'sha davrning muhim tibbiy masalalarini tizimli tarzda yoritadi. U insonning sog'lig'ini saqlash, kasalliklarni oldini olish va davolashga oid nazariy va amaliy bilimlarni o'z ichiga oladi, shuningdek, tibbiy ilmning barcha asosiy yo'nalishlarini birlashtiradi.

Ibn Sinoning ushbu asari tibbiy terminlar taraqqiyotida muhim o'rin tutadi chunki asar inson tanasini batafsil tavsiflab, temperamentlar, jismoniy qobiliyatlar, somatik kasalliklar, gigiyena va o'lim masalalari oid terminlar yoritilgan. Shuningdek, u bir a'zo yoki tananing bir qismiga emas, balki butun organizmga ta'sir qiladigan kasalliklarni ham tahlil qiladi. Asarning oxirgi boblari farmakologiyaga bag'ishlangan bo'lib, bu bo'lim ayniqsa tibbiy terminlar sistemasi shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

“Tib-Qonunlari” asari Gippokrat, Galen va Dioskorid ta'limotlari hamda an'analarining sintezi bo'lish bilan birga, ko'plab yangi ilmiy ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu asarda yunon manbalarida mavjud bo'lmagan ko'plab yangiliklar, xususan, Ibn Sinoning o'z tibbiy tajribalari va kuzatuvlari natijasida kashf etilgan ma'lumotlar mavjud. Natijada arab tilidagi mazkur terminlar tarjima qilish orqali to'g'ridan to'g'ri o'zagini saqlagan holda yunon va lotin tillariga kirib borgan. Masalan, ayrim o'simliklardan foydalanish, spirtning antiseptik xususiyatlari, bosh miya o'smalari va oshqozon yaralarini davolash usullariga oid arabcha so'zlar yunon va lotin tilida uchrashini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, fiziologiya sohasida Ibn Sino ko'rish nazariyasini ishlab chiqqan. U ko'z anatomiyasini batafsil tahlil qilib, yorug'lik ko'zga tashqaridan kelishini, shu bilan birga ko'zdan refleks orqali obyektga yetib borishini tushuntirgan.

Ibn Sinoning tibbiy asarlarida tibbiy atamalarni izohlab berish bu yondashuvi yaqqol namoyon bo'ladi. U kasalliklarni tashxislash, ularning rivojlanishi va turli dorilarning terapiyada qo'llanilishini batafsil tahlil qilgan, shuningdek, bemorlar bilan ishlashdagi shaxsiy tajribasini ham bayon qilgan. Umumiy va xususiy kasalliklarni tasniflash orqali Ibn Sino har bir kasallikni aniqlash jarayonini va zararlangan organlarni davolash usullarini tizimli tarzda tushuntirgan.

Bundan tashqari, Ibn Sino til va grammatika sohalarida ham muhim risolalar yozgan. *Shifoda* fonetika va grammatika bo'yicha ko'plab sahifalar mavjud. U siyosat va sotsiologiyani o'rganishga oid asarlar ham yaratgan. Shu bilan birga, u buyuk shoir sifatida tanilgan bo'lib, uning ko'plab arab va fors tilidagi she'rlari falsafiy va tibbiy mavzularni qamrab olgan holda bizgacha yetib kelgan. Kitob ash-Shifo Ibn Sinoning qomusiy olim ekanligining yaqqol namunasidir [16].

TAHLIL VA MUHOKAMALAR

Ibn Sino asarlaridagi tibbiy terminlarni qiyosiy va tahliliy yondashuv bilan o'rganish davomida ko'plab jahon tibbiyot atamalar arab tibbiyoti va kimyoviy an'analariidan kelib chiqqani ma'lum bo'ldi. Quyida arab tilidan kirib kelgan ba'zi tibbiy terminlarning onlayn etimologiya lug'ati yordamida qilingan tahlili keltirilgan:

Tibbiy termin	Arabcha so'z	Kelib chiqishi	Tarixiy qiyosiy tahlili
Alkali	<i>al-qali</i> arabcha القالي	“Qalay” deb ataladigan o'simlikning kuydirilgan kulidan olinadigan ishqorli modda.	Arab tilidan kirib kelgan ushbu atama XIV asr oxiri, “soda kuli,” o'rta asr arab tilidan al-qaliy “kul, kuygan kul” (ishqorli tuproqlarda o'sganligi sababli sodada ko'p bo'lgan sho'ra), qala “tovoqda qovurish.” Keyinchalik tabiiy yoki ishlab chiqarilgan shunga o'xshash moddalarga tarqaldi. Zamonaviy kimyo ma'nosi 1813-yildan.
Elixir	<i>al-iksir</i> arabcha الإكسير	Arab alkimiyasida “iksir” deb atalgan sehrli kukun / suyuqlik; qadimiy g'arb tibbiyotida ham ishlatilgan.	13-asr o'rtalarida, o'rta asr lotin tilidan eliksir “falsafiy tosh,” alkimyogarlari asosiy metallarni oltinga aylantirish va/yoki kasalliklarni davolash va hayotni uzaytirish uchun deb hisoblashgan, arab tilidan al-iksir “falsafiy tosh,” dan kitib kelgan. Keyinchalik tibbiyotda “kuchli tonik”ning ma'nosida 1590-yillar; kamida 1630-yillardan beri dori-darmonlari uchun ishlatilgan.
Mummy	<i>mumiya</i> arabcha موميّا	Arabcha so'zdan olingan bo'lib, mumiyo dorivor moddasi sifatida qo'llanilgan.	XIV asr oxiri, mummie, “mumiya to'qimasidan tayyorlangan dorivor modda”, o'rta asr lotin tilidan mumia, bu to'g'ridan-to'g'ri arab tilidan o'tgan “mumiya” so'zidan olingan.
Amber	عنبر ('anbar)	Arab tilida xushbo'y modda sifatida ishlatilgan;	XIV asr o'rtalarida, ambergrisdan tayyorlangan atir, qadimgi frantsuz (13 asr) va o'rta asr lotin tiliga arab tilidan “anbar” nomi bilan kirib kelgan. G'arb tibbiyotiga salib yurishlari paytida kiritilgan. Arabcha -nb- ko'pincha -mb- deb talaffuz qilinadi, arab savdogarlari orqali Yevropaga yoyilgan
Alkanet	Alkeyn arabcha ألكان	Arab tilidagi “al+” aniqlik artikli saqlab qolingani	Kimyoda arabcha prefiks orqali tizimlashgan. XIV asr o'rtalarida, “o'simlik alkaneti” yoki uning ildizi (qizil bo'yoq materialini oladi va stiptik sifatida ishlatiladi), o'rta asr lotin tiliga arab tilidan o'tgan. O'simlikning o'z nomi sifatida, 1560-yillardan boshlab.

Jadvalda ko'rinib turganidek, ko'plab jahon tibbiyot terminlari arab kimyoviy va davolash an'analariidan kelib chiqqan. Masalan, arab tilidagi *Al-qali* (“kuygan kul”) so'zi arab kimyoviy tajribalarda asosiy ishqor manbasi bo'lib, keyinchalik yevropalik olimlar tomonidan “alkali” tushunchasiga mos tushadigan termin sifatida qabul qilingan. Agar arab tilidan tibbiy terminologiyaga kirib kelgan atamalarni fonetik va morfologik jihatdan tahlil qilinsak arabcha “al-” aniqlikni bildiruvchi artikli (ingliz tilidagi “the”) ko'plab arabcha so'zlarda ma'lum bir shaklda saqlanib qolganligini guvohi bo'lishimiz mumkin, masalan: arab tilidan al-kuhl ingliz tiliga alcohol shaklida, arabcha al-iksir so'zi esa inglizcha elixir. Shuni ta'kidlash lozimki, arab tilidan kirib kelgan atamalar qabul qilinganda, ularning talaffuz va yozilishi xalqaro atama sifatida ingliz tili alifbo va fonetik sistemalariga moslashgan, ammo asl arab ildizlari tom ma'noda saqlanib qolgan.

XULOSA

Ibn Sinoning butun ilmiy va falsafiy merosi, xususan uning tibbiy nazariya hamda amaliyotning rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Sharq va G'arbda besh asr davomida tibbiyot va hatto ayrim dori-darmon nomlari uning ismi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Bu esa uning tibbiyotga oid asarlarining tibbiyot terminologiyasi bilan bir-biri bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Ko'plab tibbiy atamalar arab kimyo va davolash an'analaridan kirib kelib, fonetik va morfologik moslashuv orqali ingliz tilidagi xalqaro terminlarga aylangan va ular ingliz fonetik tizimiga moslashgan holda asl ildiz ma'nosini yo'qotmagan.

"Al-Qonun fit-Tibb" asari Gippokrat, Galen va Dioskoridning an'analarini tahlil qilgan bo'lsa-da, u o'z tajribalari va kuzatuvlari natijasida tibbiyot sohasiga ko'plab yangi atamalarni ham kiritgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nasr, S. H. (2013). Ibn Sina: A general overview. In M. A. Razavi (Ed.), *The Islamic Intellectual Tradition in Persia* (pp. 66–76). Routledge.
2. Pajević, A., Pajević, I., Hasanović, M., & Jakovljević, M. (2021). *Medicine and psychology of Ibn Sina (Avicenna) – A unique scientific and religious approach*. **Psychiatria Danubina**, 33(Suppl 3), S299–S308. <https://doi.org/10.5005/sar-1-1-2-64>
3. Ahmed, S., & Zargaran, A. (2020). Contributions of Avicenna to surgery and anesthesiology. *Acta Chirurgica Belgica*, 120, 204–211.
4. Avicenna. (2005). *The Metaphysics of the Healing*. Brigham Young University Press.
5. Corbin, H. (2009). *Ibn Sina i vizionarsko kazivanje (Ibn Sina and Visionary Telling)*. Naučno istraživački institut "Ibn Sina".
6. Nosirova, O. D. (2025, May 12–13). *Ginekologiya sohasiga oid tibbiy terminologiyaning rivojlanish tarixi va uning lingvistik xususiyatlari*. In *Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on Issues and Solutions in Foreign Language Teaching Based on Integrative and Competency-Based Approaches* (p. 153).
7. Handžić, M. (1999). A treatise of the Islamic philosopher Ibn Sina (Avicenna) on the fear of death and the treatment of anxiety caused by it. In *Izabrana djela knjiga V: Studije iz šerijatskog prava* (pp. 442–456). Ogledalo.
8. Cerić, I., & Mehić-Basara, N. (1997). Ibn Sina: Psychology and mental disorders. *Med Arh*, 51, 21–23.
9. Khan, Z. H., Minagar, M., Dehghan-Tezerjani, M., & Javadi, S. A. H. (2020). A note about the ancestral origin of Abu Al Husain Ibn Abdullah Ibn Sina, Avicenna (980–1037 CE). *World Neurosurgery*, 135, 173–1753.
10. Karamahmedović, H. (1961). Predgovor (Preface). In *Ibn al-Nefis: Mudžez al-Kanun (The Summary of the Canon)*. Republički zavod za zdravstvenu zaštitu.
11. Jakovljevic, M., Masic, I., Ostojic, Lj., Bevanda, M., & Begic, E. (2018). Medical hodegetics – almost forgotten art and science of upbringing medical doctors. *Medicina Academica Mostariensia*, 6, 2–8; special edition of *Psychiatria Danubina*, 31(suppl 1), 2–6.
12. Pinditrao, M. M. (2014). Are we truthfully the "good doctors"? Time for introspection: The forgotten science of medical deontology! *UWI NICE Bulletin*, 1, 6–9.
13. Rahman, F. (1988). Ibn Sina. In M. M. Šarif (Ed.), *Historija islamske filozofije I (History of Islamic Philosophy I)* (pp. 483–505). August Cesarec.
14. Nasr, S. H. (2006). *Science and Civilization in Islam*. Harvard University Press. p.34
15. Rizvi Sh. Avicenna (Ibn Sina) (c. 980-1037). Internet Encyclopedia of Philosophy. Accessed on Nov 9, 2020. <https://iep.utm.edu/avicenna/>
16. Nasr Sh. (1991). Tri muslimanska mudraca (Three muslim wisemen). El-Kalem, Sarajevo p.234-236